

Abdullayeva Ra'noxon Nodirjon qizi
Toshkent Davlat pedagogika universiteti
Email: ranoa7100@gmail.com

MAKTABGACHA YOSHDAGI DIZARTRIYALI BOLALARDA GRAFO-MOTOR QOBILYATLARINI TEKSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlarni aniqlash mobaynida bolaning intellektual rivojlanish darajasi, ko'ruv xotirasi, fazoviy mo'ljal olish qobiliyatiga shuningdekki nutqning neyropsixologik va psixolingvistik rivojlanishi va bolaning o'ziga xos faoliyati, nutqiy ko'nikma malakalarini shakllanish jarayoni, shu bilan birga artikulyatsion, ovoz va aqliy qobiliyatlarida kuzatiladigan kamchiliklar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: dizartriya, nutqiy ko'nikma, grafo-motor, artikulyatsion, ovoz

АННОТАЦИЯ: В данной статье при определении графомоторных навыков у детей с дизартрией дошкольного возраста оценивается уровень интеллектуального развития ребенка, зрительной памяти, способности находить пространственные цели, а также нейропсихологического и психолингвистического развития речи и речи. описывается конкретная деятельность ребенка, процесс формирования речевых навыков, при этом наблюдаются недостатки артикуляционных, голосовых и умственных способностей.

Ключевые слова: дизартрия, речевые навыки, графомоторика, артикуляция, голос.

ANNOTATION: In this article, when determining graphomotor skills in children with dysarthria of preschool age, the level of the child's intellectual development, visual memory, ability to find spatial targets, as well as neuropsychological and psycholinguistic development of speech and language is assessed. the specific activity of the child and the process of formation of speech skills are described, while deficiencies in articulatory, vocal and mental abilities are observed.

Key words: dysarthria, speech skills, graphomotor skills, articulation, voice.

Kirish

Maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlarni tekshirilayotganda bolaning yoshiga, bilish darajalariga, aqliy, intellektual, jismoniy, fiziologik rivojlanish holatiga va shu bilan birgalikda artikulyatsion apparatning harakatchanligi, tish, til va tanglayning holati, nafas olishdagi, teri-taktil, mayda va umumiy motorika harakatlaridagi nomutanosibliklar ham alohida e'tiborga olinadi, maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarning grafo-motor qobiliyatlarini rivojlanish holati logopedik amaliyotda qabul qilingan quyidagi usul asosida tekshiriladi. Bunda bolaga rasmdagi maxsus shakllarni yozib berish taklif qilinadi. Rasmdagi maxsus shakllarni tekshirayotganda esa bolaga yordam tariqasida dastlab ko'rsatib berish lozim. Maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlarni aniqlash mobaynida bolaning intellektual rivojlanish darajasi, ko'ruv xotirasi, fazoviy mo'ljal olish

qobiliyatini ham inobatga olishimiz darkor. Maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarni grafo-motor qobiliyatlarini tekshirishda neyrogimnastikadan ham foydalanishimiz mumkin. Misol uchun bolaga barmoqlarini sanatishimiz, ularni nomlatishimiz va huddi shu tariqa soddadan murakkabga qarab, ikkala qo'lda ikki xil vazifa bajarishni taklif qilish orqali ham tekshirishimiz mumkin. Bunda bolaga o'ng qo'lingda ikki raqamini, chap qo'lingda esa uch raqamini ko'rsat deb, topshiriq beramiz, bola ushbu topshiriqni bajarishiga qarab uning grafo-motor qobiliyatini, bosh miya yarim sharlari boshqarish faoliyatini tekshirishimiz mumkin. Berilayotgan topshiriq har bir maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarning yoshiga va holatiga mos tarzda belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tushunishi uchun mos bo'lishi, idrok qilinayotgan rasmning tarbiyaviy va ta'limiy tomonlari hisobga olinishi; ijobiy his-hayajonli munosabat uyg'otishi; hayotiy vaziyatlarni aks ettirishi lozim.

Bolaning keying psixik rivojlanishiga tez-tez salbiy ta'sir o'tkazadigan xususiyatlar. Bunday tarif nutq buzulishlarini nutqning yoshga bog'liq xususiyatlaridan, uning bolalarda va kattalarda vaqtinchalik buzulishidan nutqning territorial dialektli va sosial- madaniy omillar bilan bog'liq xususiyatlaridan farqlash imkoniyat yaratadi. Nutqida nuqsoni bor bolalar bilan olib boriladigan ta'lim tarbiya jarayonida bolalar quyidagi bilim, ko'nikma, malakalar bilan qurollantiriladi.

- Bolalarni nutq kamchiliklarini bartaraf etish va shu bilan birga idrok, xotira, tafakkur, tasavvur kabi bilish qobiliyatlarini rivojlantirish:
- Korreksion- pedagogik ish faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'yish:
- Bu jarayonda qo'llaniladigan ish metod va usullarini analiz, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalardan foydalanish:
- Bolalarning individual va psixik xususiyatlarini hisobga olgan holda nutq o'stirishga qaratilgan maxsus usullardan foydalanish va ularni hayotga moslashtirish.

Maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlar tekshirishlar natijasida shuni ko'rsatadiki, dizartriya bolalarda nafaqat nutqning tovush talaffuz tomonida, balki yozma nutqda ya'ni bolalarning grafo-motor qobiliyatlarida ham buzilish mavjudligini ko'rib chiqishimiz mumkin.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning grafomotor ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini tekshirish uchun biz tomonimizdan quyidagi diagnostik metodikalar tanlab olindi:

- “Uycha” (muallif N. N. Gutkina);
- “Yo'lakchalar” (muallif L. A. Venger);
- “Shtrixlash” (muallif Ye. V. Kireycheva);
- “Grafik diktant” (muallif D. B. Elkonin).

Ayni metodikalar hech qanday adaptatsiyalarni talab etmaydi va grafomotor ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini yetarli darajada aniq diagnostika qilib bera oladi. Bundan tashqari ular tekshiruvni bolaning yosh xususiyatlariga mos keluvchi tarzda o'tkazish imkonini beradi.

Ayni metodikalarni batafsil yoritib chiqish maqsadga muvofiq:

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi dizartriyali bolalarning grafomotor ko'nikmalarining shakllanganlik darajasini aniqlashga qaratilgan bir qator diagnostik metodikalarni ko'rib chiqishimiz mumkin.

Masalan, "Uycha" metodikasi bo'yicha topshiriqni bajarish paytida bolalar uychaning rasmini bajonidil ko'chirib chizishadi va uning shakli hamda rasmning asosiy elementlarini aniq tasvirlashga harakat qilishadi. Biroq, bizning kuzatishlarimizdan ma'lum bo'lishicha barcha bolalar rasmni ko'chirib chizishda ma'lum bir qiyinchiliklarga duch kelishgan (devorning chiziqlari noto'g'ri tasvirlangan, quvurdan chiqayotgan tutunni boshqa yo'nalishda chizib qo'yishgan, chiziqlarni chizishda uzilib qolishlar kuzatilgan va hokazo).

"Yo'lakchalar" metodikasi ustida ishlash mobaynida maktabgacha yoshdagi bolalar to'g'ri chiziqni tortishga qiynalishgan, qalamni qog'ozdan bir necha marotaba uzishgan, chiziq tortish mobaynida bolalarning qo'llari qaltiragan yoki qalamni qog'ozga juda qattiq bosib chizishgan.

"Grafik diktant" metodikasida foydalaniladigan vositalar

1. "Birinchi chiziqni chizishni boshlaymiz. Qalamni eng yuqoridagi nuqta ustiga qo'y. Chiziq tort: bitta katak pastga. Qalamni qog'ozdan uzmay turib bitta katak o'ngga chiz. Bitta katak yuqoriga. Bitta katak chapga. Bitta katak pastga. Bitta katak o'ngga. Bitta katak yuqoriga. Bitta katak o'ngga. Bitta katak pastga. Xuddi shu naqshni chizishda davom et".

2. "Endi qalamni keyingi nuqtaning ustiga qo'y. Bitta katak tepaga. Bitta katak o'ngga. Bitta katak tepaga. Bitta katak o'ngga. Bitta katak pastga. Bitta katak o'ngga. Bitta katak tepaga. Bitta katak o'ngga. Endi xuddi shu naqshni mustaqil tarzda oxirigacha o'zing chiz".

3. "Uchta katak tepaga. Bitta katak o'ngga. Ikkita katak pastga. Bitta katak o'ngga. Ikkita katak tepaga. Bitta katak o'ngga. Uchta katak pastga. Bitta katak o'ngga. Ikkita katak tepaga. Bitta katak o'ngga. Ikkita katak pastga. Bitta katak o'ngga. Uchta katak tepaga. Endi shu naqshni o'zing oxirigacha chiz".

4. "Qalamni eng pastki nuqtaning ustiga qo'y. Uchta katak o'ngga. Bitta katak tepaga. Bitta katak chapga. Ikkita katak tepaga. Uchta katak o'ngga. Ikkita katak pastga. Bitta katak chapga. Bitta katak pastga. Uchta katak o'ngga. Bitta katak tepaga. Bitta katak chapga. Ikkita katak tepaga. Endi shu naqshni oxirigacha o'zing chiz".

Maktabgacha yoshdagi dizartriyali bolalarda grafo-motor qobiliyatlar tekshirishlar natijasida shuni ko'rsatadiki, dizartriyali bolalarda nafaqat nutqning tovush talaffuz tomonida, balki yozma nutqda ya'ni bolalarning grafo-motor qobiliyatlarida ham buzilish mavjudligini ko'rib chiqishimiz mumkin. Maktabgacha yoshdagi bolalarning grafomotor ko'nikmalarini shakllanganlik darajasini tekshirish uchun ko'plab metodikalardan foydalanishimiz mumkin.

Hozirgi vaqtda grafomotorlik ko'nikmalarini shakllantirishda ko'plab texnologiya, usul va metodlardan foydalanishimiz mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalari uchun grafomotorlik ko'nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega: birinchidan, bolalarning grafik faolligi chizmachilik, bayon qilish, modellashtirish va boshqalar,

ikkinchidan, grafo-motor mahorati yozuvning funktsional asosini yanada shakllantirish uchun asos bo'ladi. Grafik ko'nikmalar shakllanishida uchta asosiy bosqichni ajratishimiz mumkin.

1. Analitik - individual harakat elementlarini izolyatsiyalash va ustalik, ishning mazmuniga aniqlik kiritish.

2. Sintetik - alohida elementlarning holistik amalga birikishi.

3. Avtomatlashtirish – grafik ko'nikmaning harakat sifatida shakllanishi bo'lib, u yuqori darajada assimilyatsiya va element bo'yicha ongli tartibga solish va boshqarishning yo'qligi bilan tavsiflanadi.

«Uy» metodikasi.

Maqsad bolaning belgilangan namunani to'g'ri ko'chirib olish qobiliyatini aniqlash, sensomotor muvofiqlashtirish va qo'l, e'tibor, fazoviy idrokning mayda motor ko'nikmalarini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganishdir.

Jihozlar: ustida tasvirlangan uy bilan tasvirlash.

Texnika: maktabgacha ta'lim muassasasi oldida, uyning rasmi joylashtirilgan va namunani aniq chizish taklif etiladi. Bolaning ish jarayonida eksperimentchi quyidagi parametrlarni qayd qiladi:

bosh qo'l (ambidexter, chap, o'ngda);

namuna bilan ishlash qanday o'tadi (namunaga qanchalik tez-tez qaraydi;

namuna ustiga havo elektroni chizishga harakat qiladimi,

namuna bilan tekshiradimi yoki darhol xotiradan chizishni boshlaydi ;

chiziqlar chizish qaysi sur'atda; ishlayotganda ko'pincha chalg'itadimi yoki yo'qmi;

namuna bilan ishlashda yuzaga kelgan savollarga aniqlik kiritadi).

Ko'rsatmalar: "Ushbu rasmga yaxshilab qarang, ustiga uy chizilgan, aniq chizishingiz kerak." Metodbirlashma natijalarini baholash jadvalga muvofiq amalga oshiriladi.

"Uy- joy" usuli yordamida o'rganish natijalarini baholash parametrlari

Vazifaning nuqtalari xususiyatlari rasmni xatosiz nusxalash rasmning bo'shlig'i ichida qismlarni noto'g'ri tartibga solish, yoki berilgan yo'nalishdan to'g'ri chiziqlarning o'ttizdan ortiq bo'yicha chetga darajalar, yoki ular bo'lmagan joylarda chiziqlar o'rtasida bo'shliqlar mavjud; bo'lishi kerak (har bir dam olish uchun 1 nuqta), bir-birining ustiga chiziqlar qatlamlanishi (1 har bir qatlam uchun ball to'plash). Bolalar chizmalarida har bir element nazarda tutiladi: uy, deraza, to'siq, chim, tutun.

"Izlar" metodikasi.

Maqsad harakatlarning aniqligini rivojlanish darajasini, uning darajasini aniqlashdan iborat bolaning qo'lining harfni o'zlashtirishga tayyorligi, shakllanishi xatti-harakatlari va e'tibori ustidan nazorat qilish.

Jihoz: qalam, rasm bilan tasvir, qaysi ustida avtomobil va uylarni ulovchi yo'llar tasvirlangan. Bola chiziqlar chizishi kerak, avtomobil va uylarni ulashi kerak.

Ko'rsatmalar: "Chizmaga diqqat bilan qarang, qalam olib, avtomobillar va uylarni uzmasdan to'g'ri ulashga harakat qiling ".

3-4 yoshli bolalarga qo'yiladigan talab quyidagicha: bola qo'li va barmoqlarini turli maqsadlarda ishlatadi. Kutilayotgan natijalar: bola xalqaga arqonni kirg'izadi; mayda

predmetlarni ma'lum bir tartibda taxlaydi; mustaqil ravishda o'yinchoqlarni qutiga joylashtiradi va undan oladi; kattalar yordamida yirik hajmdagi munchoqlarni ipga o'tkazadi; buyumlarni bir idishdan ikkinchisiga joylashtiradi; 2-3 obyektidan rasm tuzadi; varaq sathida to'g'ri chiziqlar chizadi; harflara qiziqish bildiradi, ayrim harflarni shaklini biladi va farqlaydi; yirik munchoqlarni teradi; yozishga harakat qiladi. 4-5 yoshli bolalar: mustaqil tugmachalarni qadaydi va yechadi, kiyimi va poyabzali ilgaklarini o'zi taqadi; namuna asosida ipga mayda, o'rta va yirik munchoqlarni teradi; qulflarni ochadi va yopadi, kalitdan foydalanadi; mayda buyumlarni buraydi va bir biriga ulaydi; konstruktorning katta va kichik qismlaridan har xil predmetlar yasaydi; namuna asosida to'g'ri chiziq va aylana chizadi; rasmlarni ustidan yurgizib chizadi va bo'yaydi; ko'rsatilgan chiziq bo'yicha qog'oz, mat ova salfetakni buklaydi; ko'rsatilgan chiziq bo'ylab qaychi bilan qirqadi. 5-6 yoshda: yuzalarda turli chiziqlar chizadi; kichik va katta o'yinchoqlarni qutiga hajmiga qarab joylashtiradi; murakkab konstruksiyalarni jamlaydi; qopchadagi o'yinchoqlarni paypaslab nomini aytaoladi; to'g'ri chiziq bo'ylab qog'ozni mustaqil qirqadi; chiziq, ilgak va gajakcha yozadi; qog'ozni turli usulda taxlaydi (origami); namuna asosida bosma harflarni yozishni boshlaydi; barmoqlari yordamida mashqlar bajaradi; rasmlarni tekis shtrixlaydi; turli sathlarda chizadi (namqumda, asfaltda, doskada); soch o'radi, mozaika yig'adi. 6-7 yoshda: Tasavvurdagi predmetlarni qo'llari bilan (gul, qush, kapalak) ko'rsatadi; arqonlardan turli tugunlarni tugadi; o'yin faoliyati mobaynida mayda o'yinchoqlar bilan o'ynaydi; belgilangan chiziqlar bo'ylab qog'ozni batartib yirtaoladi; mayda qisimli mozaika va pazllarni yig'adi; (qo'l barmoqlari mayda motorikasi) qog'ozda to'g'ri chiziqlar, so'zlar va qisqa gaplarni yozadi; daftardagi yozuv qatorlarini anglay oladi; rasmlarni to'g'ri joylashtiradi; qo'lni uzmasdan nuqta chiziqlarni birlashtirib rasm chizadi; matodagi rasmni to'qiydi; "o'ziga" va "o'zidan" harakatlari yo'nalishini tushunadi; turli materiallardan murakkab namunalarni qirqadi. Bolalarning mayda motorikasini rivojlantirish uchun ko'plab mashg'ulotlar, o'yinlar va mashqlar mavjud. Ularni quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin: barmoq o'yinlari, mayda buyumlar bilan bog'liq o'yinlar, shakl yasash va rasm chizish, barmoqlarni massaj qilish. Grafo-motor qobiliyatlarini rivojlantirishning eng oddiy va samarali usuli bu kaftlarni massaj qilishdir. Bu usul har qanday yosh uchun eng oddiy va universal usul hisoblanadi. Bunda bolaning kaftlarini silanadi va ularni massaj qilinadi.

"Qog'oz yirtish" usuli – bu mashq ko'proq 7 oylik bollarga to'g'ri keladi. Bolaga birnecha varaq yumshoq rangli qog'oz beriladi, bola uni bajonidil ushlab ko'radi, qo'llarida aylantiradi va yirtadi. Bu mashg'ulot bolga juda katta zavq bag'ishlaydi.

"Sahifa larni varaqlash" – bu usul 1 yoshdan so'ng qog'oz yirtishni rasmlari ko'p bo'lgan kitobcha yoki jurnal sahifalarini varaqlashga almashtirish mumkin bo'ladi. Albatta bunda bolani ehtiyotkorlik bilan bajarishga o'rgatish lozim.

"Munchoqlar bilan ishlash" – bolalarga bu mashg'ulot ya'ni mayda buyumlarni ushlab yoqadi va bu juda foydali. Bunda bola turli o'lcham va shakldagi munchoqlari bor taqinchoqni o'ynashi natijasida uning qo'l barmoqlari motorikasi rivojlanadi. Yormalarni bilan ishlash – bunda biz kosachaga istalgan yormani solamiz va uni bolaga beramiz. U yormani qo'li bilan ushlab ko'radi yoki barmoqlari orasidan to'kadi. Ushbu o'yin orqali bolalarning mayda motorika va taktil hissiyotlari yaxshi rivojlanadi.

“Qumda rasm chizish” (pesochnaya terapiya) maxsus texnika vositasida bolalar maxsus idishda qum sepiladi va bolaning barmoqchasini o‘z qo‘limizga olib, uni qum bo‘ylab yuritimiz. Rasm chizishni dastlab chiziq, to‘g‘ri burchak, doira kabi oddiy shakllardan boshlab, ularni asta-sekinlik bilan murakkablashtirishimiz mumkin. Maxsus uskunadagi etti xil rang bolalar chizmasini etti xilda ko‘rish imkonini beradi. Ushbu jarayon balalar qo‘l matorikasi faoliyatini yaxshilash imkonini beradi.

“Qopqoqlarni burab yopish” – bunda bolalarga turli o‘lchamdagi idishlar taklif etiladi, bankalar, butilkalarning qopqoqlarini burab ochib-yopish kabi oddiy mashg‘ulot barmoqlarning epchilligini rivojlantiradi.

Bolalarning grafo-motor qobiliyatlarini rivojlantirishda samarali usullardan yana biri bu – tugmani taqish, yechish, iplarni bog‘lashdir. Bunda bolani kiyintirish jarayoniga jalb etiladi va u tugmalari va bog‘ichlarini o‘zi taqsin va echsin. Bu orqali nafaqat harakatlar rivojlantiriladi, balki bolani mustaqillikka ham o‘rgatiladi. Turli yoshdagi bolalarga mos keluvchi mashg‘ulotlardan biri bu – yumshoq narsalarga shakl berishdir. Ya‘ni bunda bolalar plastilin, loy, xamirdan turli narsalarni yasashlari mumkin. Bu orqali bolaning mayda motorikasi bilan birgalikda uning bilish qobiliyalari, dunyoqarashi, fantaziyasi ham rivojlanadi. Bu kabi mashg‘ulotlarga biz applikasiya, origami va sahnalashtirish faoliyatlarini ham kiritishimiz mumkin. Rasm chizish va bo‘yash – punktir chiziqlardan iborat rasmlarning konturlari ustidan chizib chiqish hamda turli shakldagi obyektlarni bo‘yash juda foydali. Shuningdek vertikal yuzalar – devor, doska, oynada chizish ham foyda beradi. Mozaika va pazllarni yig‘ish orqali ham bolaning motorikasi ham uning tasavvurini mashq qildiriladi. Grafo-motor qobiliyatlarin irivojlantirish uchun mo‘ljallangan o‘yinlar faqat kattalarning nazorati ostida olib borilishi hamda bunday mashqlarni muntazam ravishda olib boorish orqali samarali natijaga erishishimiz mumkin. Ya‘ni, bolaning harakatlari ravon, aniq va o‘zaro mutanosib bo‘ladi.

Hozirgi vaqtda grafomotorlik ko‘nikmalarini shakllantirishda ko‘plab texnologiya, usul va metodlardan foydalanishimiz mumkin. Maktabgacha ta‘lim muassasalari uchun grafomotorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega: birinchidan, bolalarning grafik faolligi chizmachilik, bayon qilish, modellashtirish va boshqalar, ikkinchidan, grafo-motor mahorati yozuvning funktsional asosini yanada shakllantirish uchun asos bo‘ladi.

Maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlarni tekshirilayotganda bolaning yoshiga, bilish darajalariga, aqliy, intellektual, jismoniy, fiziologik rivojlanish holatiga va shu bilan birgalikda artikulyatsion apparatning harakatchanligi, tish, til va tanglayning holati, nafas olishdagi, teri-taktil, mayda va umumiy motorika harakatlaridagi nomutanosibliklar ham alohida e‘tiborga olinadi, maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarning grafo-motor qobiliyatlarini rivojlanish holati logopedik amaliyotda qabul qilingan quyidagi usul asosida tekshiriladi. Bunda bolaga rasmdagi maxsus shakllarni yozib berish taklif qilinadi. Rasmdagi maxsus shakllarni tekshirayotganda esa bolaga yordam tariqasida dastlab ko‘rsatib berish lozim. Maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlarni aniqlash mobaynida bolaning intellektual rivojlanish darajasi, ko‘ruv xotirasi, fazoviy mo‘ljall olish qobiliyatini ham inobatga olishimiz darkor. Maktabgacha yoshdagi dizartriya

bolalarni grafo-motor qobiliyatlarini tekshirishda neyrogimnastikadan ham foydalanishimiz mumkin. Misol uchun bolaga barmoqlarini sanatishimiz, ularni nomlatishimiz va huddi shu tariqa soddadan murakkabga qarab, ikkala qo'lda ikki xil vazifa bajarishni taklif qilish orqali ham tekshirishimiz mumkin. Bunda bolaga o'ng qo'lingda ikki raqamini, chap qo'lingda esa uch raqamini ko'rsat deb, topshiriq beramiz, bola ushbu topshiriqni bajarishiga qarab uning grafo-motor qobiliyatini, bosh miya yarim sharlari boshqarish faoliyatini tekshirishimiz mumkin. Berilayotgan topshiriq har bir maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarning yoshiga va holatiga mos tarzda belgilanadi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tushunishi uchun mos bo'lishi, idrok qilinayotgan rasmning tarbiyaviy va ta'limiy tomonlari hisobga olinishi; ijobiy his-hayajonli munosabat uyg'otishi; hayotiy vaziyatlarni aks ettirishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi dizartriya bolalarda grafo-motor qobiliyatlarini rivojlantirish bolaning bilish darajalariga, aqliy, intellektual, jismoniy, fiziologik rivojlanish holatiga va shu bilan birgalikda artikulyatsion apparatning harakatchanligi, nafas olishdagi, teri-taktil, mayda va umumiy motorika harakatlaridagi nomutanosibliklar ham alohida e'tiborga olinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi 4947-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF.
2. Abidova N.Z. Maxsus psixologiya(tiflopsixologiya) /Машғулотлик/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.:, "Barkamol fayz media", 2017 y. - 83 b.
3. Ayupova M.Y. Logopediya /Машғулотлик/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.:, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2007 y. - 43 b.
4. Musayeva N.S. "Aqli zaif o'quvchilarda verbal va noverbal muloqotga kirishish ko'nikmalarini ta'lim jarayonida rivojlantirish"
5. Mo'minova L.R., Amirsaidova SH.M. va boshqalar. Maxsus psixologiya/Машғулотлик/ T.:, 2013 y.T.:, "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati", 2013 y. - 153 b.
6. Xaydarov.F.I, Xalilova.N.I. Umumiy psixologiya/Машғулотлик/ O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta - maxsus ta'lim vazirligi. T.:, 2010 y. -63 b.
7. Лопатина Л.В. Изучение и коррекция нарушений психомоторики у детей с минимальными дизартрическими расстройствами // Дефектология. -№5. 2003. - С.45-52.
8. Куссмауль А. Расстройства речи. Опыт патологии речи. — Киев.: Изд-во врача Б.А. Хавкина, 276 с.
9. Мастюкова Е.М. Двигательные нарушения и их оценка в структуре аномального развития // Дефектология. 2005. - №3. - С 3-9.

10. Internet saytlari:

11. <http://www.tdpu.Uz>



12. <http://www.pedagog.Uz>
13. <http://www.Ziyonet.Uz>
14. <http://www.edu.Uz>
15. [http://tdpu-INTRANET. Ped](http://tdpu-INTRANET.Ped)
16. <http://www.defektolog.ru>